


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Tuopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	



TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI

Xolmatov Umid Sadirdinovich

Andijon davlat texnika instituti

“Transport logistikasi” kafedrası dotsenti

O'zbekiston, Andijon

E-mail: umid.xolmatov.76@mail.ru

ORCID: 0000-0003-2295-502X

Annotatsiya. Maqolada yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish shart-sharoitlari turlicha bo'lishiga qaramay, ularni o'rganish va tahlil qilish orqali umumiy o'xshashlik belgilarini aniqlash masalalari yoritilgan. Shu asosda yo'l-transport hodisalarini tasniflash, ularning yuzaga kelish sabablarini o'rganish hamda oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, haydovchi omili bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari ko'rib chiqilib, ularning oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: avtomobil, haydovchi, yo'l, piyoda, muhit, transport, yo'l-transport hodisasi, harakat xavfsizligi, harakat tezligi.

Abstract. The article examines the identification of common characteristics of road traffic accidents through the study and analysis of the different conditions under which they occur. It substantiates the importance of classifying road traffic accidents, investigating their causes, and developing measures for their prevention. The causes of road traffic accidents associated with driver-related factors are also considered, and recommendations for preventing them are proposed.

Keywords: vehicle, driver, road, pedestrian, environment, transport, road traffic accident, traffic safety, travel speed.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы выявления общих признаков дорожно-транспортных происшествий посредством изучения и анализа различных условий их возникновения. Обосновано значение классификации дорожно-транспортных происшествий, исследования причин их возникновения и разработки мер по их предупреждению. Также рассмотрены причины дорожно-транспортных происшествий, связанных с водительским фактором, и предложены рекомендации по их предотвращению.

Ключевые слова: автомобиль, водитель, дорога, пешеход, среда, транспорт, дорожно-транспортное происшествие, безопасность движения, скорость движения.

KIRISH

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida transport infratuzilmasini, xususan, magistral avtomobil yo'llari tarmog'ini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston BMTning “Tranzit yuk tashishda hamkorlikni rivojlantirish orqali savdoni kengaytirish” dasturida bevosita ishtirok etib, “Buyuk Ipak yo'li”ni tiklashga kirishdi. O'zbekiston “Buyuk Ipak yo'li” — Yevropa va Osiyo mamlakatlarining o'zaro aloqa va hamkorlikdagi qadimiy magistralining markaziy tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilda yangi yo'llar barpo etish, transport-logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha quyidagi ishlar rejalashtirilganligini ta'kidlab o'tdi. Avtomobil transporti infratuzilmasini rivojlantirishda xalqaro va davlat ahamiyatiga molik, shuningdek, hududlarni o'zaro bog'laydigan avtomobil yo'llarini takomillashtirishga ustuvor e'tibor qaratilmoqda [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yo'l-transport hodisalari (YTH) dunyo miqyosida dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 1,19 milliondan ortiq inson yo'l-transport hodisalari oqibatida vafot etadi va 20–50 million nafarga yaqin kishi turli darajadagi tan jarohati oladi. YTHlarning katta qismi transport oqimi yuqori bo'lgan shaharlarda va tirband hududlarda sodir bo'ladi. Shu sababli transport oqimini samarali boshqarish va tirbandliklarni kamaytirish yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [6]. Rossiya olimlari V.V. Silyanov, A.E. Gorev va Yu.A. Kremenets yo'l harakatini tashkil



etish va transport oqimlarini boshqarish masalalarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning ishlarida transport oqimining zichligi, yo'lining geometrik elementlari va chorrahalarining o'tkazuvchanligi YTH xavfiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [7–9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Avtomobil transporti ishini, haydovchi mehnatini, yo'ldagi transport vositalari va piyodalar harakatini tashkil etishni bir-biridan farqlash lozim. Birinchi ikki masala bilan, asosan, avtokorxonalar, keyingisi bilan esa yo'l xo'jaliklari, yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari va hokimiyat vakillari shug'ullanadilar. Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, yo'l harakatini tashkil qilishning asosiy maqsadi har xil transport vositalarining yuqori tezlikda yo'lining turli bo'laklaridan yilning har qanday ob-havo sharoitida xavfsiz o'tishini ta'minlashdan iborat [2, 3, 4].

Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida bo'lganidek, avtotransport tizimida ham yuz berayotgan katta o'zgarishlar sohada amaliy qilinayotganligidan darak beradi. Mustaqillik yillarida avtomobilsozlik sanoatining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi mamlakat transport tizimining kengayishiga xizmat qildi. Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish bugungi kundagi muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Avtomobilning atrof-muhitga yetkazadigan zararlari miqdori kundan kunga oshib bormoqda. Yo'l-transport hodisalari oqibatida fuqarolarning tan jarohati olishi va o'lim bilan bog'liq holatlarning yuzaga kelishi ushbu masalaning dolzarbligini oshiradi.

Yo'l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ularning sonini yanada kamaytirish uchun qo'shimcha tashkiliy va texnik choralarni qo'llash zarur. Bu esa yo'l harakati xavfsizligi muammolariga o'ta jiddiy yondashish zarur ekanligini mutaxassislar oldiga vazifa qilib qo'ymoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Harakat xavfsizligini ta'minlash uchun unga ilmiy yondashish, uning barcha serqirra jarayonlarini tahlil etish zarur. Buning uchun yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar yo'l harakatining asosiy ko'rsatkichlari, yo'l sharoitlarining transport oqimlari harakatiga qanday ta'sir ko'rsatishi hamda transport oqimlarini boshqarishning texnik vositalari orqali yo'l harakatini boshqarish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari zarur.

Avtomobil yo'llaridagi transport oqimi turli omillar ta'sirida shakllanadi va ayrim holatlarda harakatning barqarorligi buzilishi mumkin. Ayrim haydovchilarning harakat rejimini tanlashda boshqa yo'l harakati qatnashchilarining xavfsizligini yetarli darajada hisobga olmasligi ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Harakat tezligi yo'l va ob-havo sharoitlari hamda transport oqimining xususiyatlariga mos tanlanmagan hollarda yo'l harakati xavfsizligi darajasi pasayishi mumkin. Bunday holat esa avtomobil yo'llarida ziddiyatli sharoitlarni vujudga keltirmoqda.

Bundan tashqari, turli rusumdagi avtomobillarning har xil dinamik sifati harakat tartibiga ta'sir qilishi muqarrardir. Yo'l harakatida avtomobillarning o'zaro ta'siri harakat miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha ortib boradi [2, 5].

Yo'l harakatini tashkil etish transport vositalari oqimining yo'l geometrik o'lchamlari imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishi, uning har xil bo'laklarida xavfsiz harakat tartibi va yuqori o'tkazish qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, transport vositalarining yuqori samaradorlik bilan harakatlanishiga yo'naltirilgan tadbirlar tizimidan iborat. Yo'l harakatini tashkil etish tamoyillari transport oqimini to'g'ri yo'naltirishga, kerak hollarda ularni tezliklar bo'yicha guruhlariga ajratishga, har bir yo'l bo'lagi uchun ratsional tezliklarni belgilashga, haydovchilarga o'z vaqtida harakat yo'nalishi va yo'l sharoiti to'g'risida axborot berishga qaratiladi. Yo'llarda harakatlanish deganda harakatdagi transport vositalari majmui bilan piyodalarning o'zaro munosabatlari tushuniladi [2, 5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yo'l harakatini tashkil qilishning asosiy maqsadi har xil transport vositalarining yuqori tezlikda yo'lining turli bo'laklaridan yilning har qanday ob-havo sharoitida xavfsiz o'tishini ta'minlash hisoblanadi.

Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish shart-sharoitlari turlicha bo'lsa-da, ularni o'rganish va tahlil qilish ba'zi bir o'xshashlik alomatlarini belgilashga yordam beradi. Shu asosda hodisalar klassifikatsiyasini ishlab chiqish, ularning vujudga kelish sabablarini o'rganish va bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, hodisa turlari klassifikatsiyasi hisobotlarni umumlashtirib, tahlil qilish imkonini beradi. Yo'l-transport hodisalari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi: to'qnashuv, ag'darilib ketish, to'xtab turgan transport vositasini urib ketish, to'siqlarga urilish, piyodalarni bosib ketish, velosipedchini bosib ketish, aravani bosib ketish, hayvonlarni urib ketish va boshqa yo'l-transport hodisalari. Avtomobil yo'llari, shahar ko'chalari va maydonlarida transport vositalarining normal harakat tartibi buzilishi oqibatida insonlarning halok bo'lishi, tan jarohati olishi, shuningdek, transport vositalari va ulardagi yuklarning zarar ko'rishi, yo'ldagi sun'iy inshootlarning zararlanishi yoki boshqa turdagi moddiy zararlarni yetkazilishiga sabab bo'luvchi halokatlarga yo'l-transport hodisasi deyiladi. Bu ta'rifga ko'ra, yo'l-transport hodisasida ikkita omil bo'lishi xarakterlidir. Bular insonlarning o'limi, tan jarohati olishi yoki katta miqdordagi moddiy zarar, shuningdek, biror-bir transport vositasining harakatda bo'lishidir [2, 3, 5].


Transport yo'llarining sifati hamda zamonaviy infratuzilmaviy ta'minoti yuklarni tashish tezligining oshishiga olib



keladi va pirovard natijada mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishini ta'minlaydi. Xalqaro moliya bozorlaridagi inqiroz va buning oqibatida vujudga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar davrida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida vaqtincha foydalanilmayotgan mehnat resurslarini mamlakat transport infratuzilmasini rivojlantirishga safarbar qilish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini amaliyotga tatbiq etish kutilgan natijalarga olib keladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda avtomobil yo'llarini qurish va ulardan foydalanish sohasida mavjud yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan keng qamrovli ishlarni yanada jonlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yo'l harakatini tashkil etish transport vositalari oqimining yo'l geometrik o'lchamlari imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishi, uning har xil bo'laklarida xavfsiz harakat rejimi va yuqori o'tkazish qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, transport vositalarining yuqori samaradorlik bilan harakatlanishiga yo'naltirilgan tadbirlar tizimidan iborat. Yo'l harakatini tashkil etish tamoyillari quyidagilarga qaratiladi: transport oqimini to'g'ri yo'naltirishga, kerak hollarda ularni tezliklar bo'yicha guruhlariga ajratishga, har bir yo'l bo'lagi uchun ratsional tezliklarni belgilashga, haydovchilarga o'z vaqtida harakat yo'nalishi va yo'l sharoiti to'g'risida axborot berishga [2, 4].

Piyodalar yo'l harakatida alohida o'rin egallaydilar. Ularning yo'l harakati qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari real yo'l sharoitlarida harakat xavfsizligini ta'minlashga imkon yaratadi [2, 5].



1-rasm. Sutka davomida transport vositalari harakat jadalligining o'zgarishi®

Xavfsiz harakatni tashkil etishda transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tadqiq qilish birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Quyida ular to'g'risidagi asosiy tushunchalarga to'xtalib o'tamiz.

Harakat miqdori (jadalligi) — yo'lni biron-bir ko'ndalang kesimidan vaqt birligi ichida o'tgan transport vositalarining soni (avt./sutka yoki avt./soat).

Harakat tarkibi transport oqimida har xil transport vositalarining nisbatini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, u foizda yoki ulushda o'lchanadi. Bu ko'rsatkich transport oqimining tezligi va zichligiga katta ta'sir ko'rsatadi [2, 4].


Piyodalar oqimining zichligi bir kvadrat metr trotuar maydoniga to'g'ri keladigan qiymat bilan aniqlanadi. Piyodalar oqimining zichligi trotuarning eni va piyodalarning harakat miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, ularning nisbati piyodalarning harakatlanish qulayligini belgilaydi.

Bir yil davomida shahar ko'chalarining tirband hududlarida piyodalar va transport vositalari harakati kuzatildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, qayd etilgan jami harakat ishtirokchilarining 40 foizini piyodalar, 37 foizini yengil avtomobillar, 22 foizini mikroavtobuslar va Damas rusumidagi avtomobillar, 1 foizini esa avtobuslar tashkil etdi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash yo'l-transport hodisalarining yuzaga kelish sabablarining oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og'irligini yengillashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

Hozirgi vaqtda transport vositalari sonining ortishi shahar yo'llarida transport oqimi zichligining oshishi va tirbandliklarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2021-yilga nisbatan 2022-yilda sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalari sonida o'sish kuzatilgan. Bunga transport vositalari oqimining sutkaning turli vaqtlarida bir xil taqsimlanmasligi ham ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.

2-rasmda sutkaning turli vaqtlarida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalari dinamikasi keltirilgan. Viloyatda yo'l-transport hodisalarining yuzaga kelishiga transport vositalari sonining ortishi, yo'lovchi tashuvchi transport vositalari, jumladan, Damas rusumidagi va yo'nalishli taksilarning harakatini yetarli darajada tartibga solmaslik, transport vositalarining texnik nosozligi, haydovchi omili, yo'l sharoitining talab darajasida emasligi, piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya etish darajasi hamda yo'llardagi tirbandliklar ta'sir ko'rsatishi mumkin [2, 3, 5].



2-rasm. Yo'l-transport hodisalarining sutka vaqtlari bo'yicha taqsimlanishi[®]

Bu muammoni hal qilish yo'llaridan biri avtomobil yo'llarida harakatni boshqarishni tashkil qilish bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi [2, 4]:

- yo'l sharoiti va transport oqimi holati to'g'risida ma'lumot yig'ish hamda tahlil qilish;
- har bir aniq holatda optimal harakat tartibini tanlash;
- harakat qatnashchilariga tavsiya etilayotgan harakat tartibi to'g'risida tezkor axborot berish va uning bajarilishini nazorat qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, shahar ko'chalarining tirband hududlarida ayrim piyodalar, jumladan, bolalar tomonidan yo'l harakati qoidalar va svetofor ishoralariga yetarli darajada rioya qilinmasligi, shuningdek, belgilanmagan joylardan harakatlanish holatlari kuzatildi. Ayrim haydovchilar tomonidan esa yo'l chiziqlari, yo'l belgilari va belgilangan harakat tartibiga rioya qilmaslik holatlari qayd etildi. Yo'lovchi tashuvchi transport vositalarining ayrim hollarda belgilangan bekatlardan tashqarida to'xtashi hamda yo'lovchilarni tushirish va



chiqarishi hududdagi transport oqimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur omillar yo'l-transport hodisalari xavfining ortishiga sabab bo'lishi ehtimolini oshiradi.

Yo'l harakati xavfsizligini yaxshilash uchun haydovchilarning mehnat va dam olish tartibiga rioya etishini ta'minlash, ko'chalarni yetarli darajada yoritish, yo'l infratuzilmasini talab darajasida saqlash hamda belgilangan tezlik me'yorlariga amal qilinishini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi viloyat va shahar hududlarida yo'l-transport hodisalari xavfini kamaytirish hamda harakat xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2018-yil 28-dekabr / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent, 2018.
2. Azizov, Q. H. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari : darslik / Q. H. Azizov. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2009. – 267 b.
3. Xolmatov, U. S. Yo'l-transport hodisalarining vujudga kelishida piyoda va piyoda bolalarning o'rni / U. S. Xolmatov, S. U. Xolmatov // Science and Innovation in the Education System. – 2022. – J. 1, № 6. – B. 8–15.
4. Xolmatov, U. S. Avtomobil yo'llarida yo'l-transport hodisasining vujudga kelishida «avtomobil–haydovchi–yo'l–piyoda–muhit» tizimining ahamiyati / U. S. Xolmatov // Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari : xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2023. – B. 289–294.
5. Global status report on road safety 2023 / World Health Organization. – Geneva : World Health Organization, 2023. – ISBN 978-92-4-008651-7.
6. Сильянов, В. В. Транспортно-эксплуатационные качества автомобильных дорог и городских улиц : учебник для вузов / В. В. Сильянов, Э. Р. Домке. – 3-е изд. – Москва : Академия, 2009. – 352 с.
7. Горев, А. Э. Организация автомобильных перевозок и безопасность движения : учебное пособие / А. Э. Горев, Е. М. Олещенко. – 4-е изд., перераб. – Москва : Академия, 2012. – 253 с. – ISBN 978-5-7695-8499-2.
8. Кременец, Ю. А. Технические средства организации дорожного движения : учебник для вузов / Ю. А. Кременец, М. П. Печерский, М. Б. Афанасьев. – Москва : Академкнига, 2005. – 279 с. – ISBN 5-94628-111-9.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100